

SURXONDARYO VILOYATI IJTIMOIIY – IQTISODIY RIVOJLANISHIDA IQTISODIY GEOGRAFIK O'RNINING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

Choriyev Abdurashid Qodirovich – Termiz davlat universiteti magistranti.

Ochilova Gulasal Muzaffarovna - Termiz davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining iqtisodiy-geografik o'ri, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning relyefi, iqlimi, balandlik mintaqalari, suv resurslari, qishloq xo'jaligi va sanoat salohiyati, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish darajasi yoritilgan. Tadqiqotda Surxondaryo viloyatining O'zbekiston iqtisodiy tizimidagi o'ri va mintaqaning tarixiy taraqqiyoti ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Iqtisodiy-geografik o'rin, Tabiiy resurslar, Balandlik mintaqalari, Qishloq xo'jaligi, Sanoat salohiyati, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Sug'orish tizimi, Relyef va iqlim sharoiti.

Чориев Абдурашид Кадинович – магистрант Термезского государственного университета.

Ochilova Gulasal Muzaffarova - Termiz davlat universiteti talabasi.

Аннотация: В статье анализируется экономико-географическое положение Сурхандарьинской области, а также её природные и социально-экономические особенности. Рассматриваются рельеф, климат, высотные пояса, водные ресурсы, сельскохозяйственный и промышленный потенциал, а также уровень экономического развития. В исследовании также затрагиваются исторические аспекты развития региона и его роль в экономической системе Узбекистана.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Экономико-географическое положение, Природные ресурсы, Высотные пояса, Сельское хозяйство, Промышленный потенциал, Социально-экономическое развитие, Ирригационная система, Рельеф и климатические условия

MAIN FEATURES OF THE ECONOMIC GEOGRAPHICAL POSITION IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF SURKHANDARDO REGION.

Choriye Abdurashid Qodirovich – Master's student at Termez State University.

Ochilova Gulasal Muzaffarovna - Termiz davlat universiteti talabasi.

Abstract: This article analyzes the economic-geographical position of the Surxondaryo region, along with its natural and socio-economic characteristics. It covers aspects such as relief, climate, elevation zones, water resources, agricultural and industrial potential, and the level of economic development. The research also highlights the historical evolution of the region and its role within Uzbekistan's economic system.

Keywords: Surxondaryo region, Economic-geographical position, Natural resources, Elevation zones, Agriculture, Industrial potential, Socio-economic development, Irrigation system, Relief and climatic conditions

O'zbekistonning barcha mintaqalari kabi Surxondaryo ham qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning geografik o'rniga aloqador bo'lgan asosiy ko'rsatkichlari mazkur ishning 1.2 bandida o'z bahosini olgan. Unga ko'ra respublika mintaqalari orasida Surxondaryo viloyati eng past reyting ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga tadqiqot obyekting iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, uning o'ziga xos ishlab chiqarish ixtisosiga tubdan ta'sir ko'rsatadigan muhim tomonlari ham mavjuddir. Ular quyidagilar:

- viloyat respublikaning eng janubida joylashganligi. Shu sababdan uning yozi boshqa mintaqalarga nisbatan ancha issiq va davomli (iyulning o'rtacha harorati $+28^{\circ}$ $+32^{\circ}$ S), qishi esa ancha iliq va qisqa (yanvarning o'rtacha harorati $+1^{\circ}$ $+4^{\circ}$ S) bo'ladi. O'z navbatida, bu agroiklim resurslariga boy bo'lgan o'lkada eng issiqsevar qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, ularni erta yetishtirish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi.

- relyefining o'ziga xosligi. Surxondaryo relyefining xilma - xilligi bilan alohida ajralib turadi. Uning hududi dengiz yuzasidan balandligi 270 m (janubida) dan

4643 m (shimolidagi Hisor tog' tizmasi) gacha bo'lgan balandliklardan tashkil topgan. Viloyat hududi shimoliy, g'arbiy va sharqiy tomonlaridan baland tog'lar bilan o'ralgan va ulardan kirib keladigan sovuq havo oqimlarini to'sib qolishi mintaqa ijtimoiy hayotida hamisha katta ijobiy rol o'ynab keladi;

- hududining keng darajada vertikal mintaqalanishi. Unda mutloq balandligi 270-600 m bo'lgan tekislik qismi, 600-1000 m bo'lgan maydonlarni egallagan tog' oldi - adirlik qismi va 1000 m dan balandda joylashgan hududlarni o'zida birlashtirgan tog'lik qismlari yaqqol ajralib turadi. Bu balandlik mintaqalari I.Safarovning topogipsometrik xaritalar asosida aniqlagan ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning umumiy maydoniga nisbatan tekislik qismi hissasiga 36 %, tog' oldi -adirlik qismiga 23 % hamda baland tog'larga 41 % to'g'ri keladi.

- Alohida ta'kidlamoqchimizki, O'zbekistonning biron iqtisodiy rayonida balandlik mintaqalari Surxondaryochalik ko'rinishga ega emas.

Surxondaryo tabiiy botig'ining pastki voqa qismini egallagan tekislik mintaqasida hozirgi vaqtda jami sug'oriladigan maydonlarning 90 % joylashgan. Binobarin, bu mintaqa viloyatning asosiy iqtisodiy tayanchi hisoblanadi. Viloyat aholisining 85 % dan ko'proqi, shahar va sanoat korxonalarining mutlaqo ko'pchiligi ana shu balandlik mintaqasida joylashgan. Tog' oldi - adirlik mintaqasining ayniqsa yuqori - shimoli qismi suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlanganligi sababli azaldan iqtisodiy jihatdan o'zlashtirib kelingan. Hozirgi kunda uning hissasiga jami sug'oriladigan maydonlarning 7 % va aholisining 10 % ga yaqini to'g'ri keladi.

Garchi Surxondaryo hududining 40 % dan ko'prog'i tog' mintaqasiga to'g'ri kelsa-da, uning iqtisodiyoti asosan tabiiy geografik omillar ta'sirida ancha cheklangan. Umumiy sug'oriladigan yer maydonlarining atigi 3 %, jami aholi manzilgohlarining 5 % ga yaqinini ana shu balandlik mintaqasi tashkil etadi.

Yuqorida qayd qilingan balandlik mintaqalari Markaziy Osiyodagi aholi tomonidan o'zlashtirilgan eng qadimiy sivilizatsiya maskanlaridan sanaladigan Surxondaryo o'lkasining ijtimoiy hayotida o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. O'lka boshidan kechirgan barcha tarixiy davrlar davomida voqa - tekislik mintaqasi boshqa

balandlik mintaqalariga nisbatan iqtisodiy - ijtimoiy jihatdan har tomonlama yetakchilik qilgan. O'zbekistonning barcha mintaqalari kabi bu o'lkada ham ariqlar va boshqa sug'orish inshootlaridan foydalanib, hayotiy mahsulotlar yetishtirishga erishilgan. Hozirgi vaqtda ham faoliyatda bo'lgan Zang kanali shular jumlasidandir.

Surxondaryo viloyatining tog' oldi - adirlik mintaqasi uning tekislik qismini har tomonlama o'rab turishi va asosan janubdan shimolga qarab tobora torayib borishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga u ayniqsa vohaning janubiy va markaziy qismlarida tabiatning quruq va iqtisodiy jihatdan kam o'zlashtirilganligi bilan ajralib kelgan. Bu balandlik mintaqasi shu sababli ko'proq chorvachilik, shimoliy qismlarigina dehqonchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashgan.

Viloyat hududining yarmiga yaqinini egallagan tog' mintaqasi, barcha tog'li hududlarda bo'lganidek, o'ziga xos iqtisodiy - ijtimoiy imkoniyatlarga ega. Relyefi va boshqa tabiiy sharoiti murakkabliklari, albatta, xududni keng doirada o'zlashtirishga imkon bermaydi. Ammo aholi asrlar davomida uning qulay tog' oralig'i botiqlari, yonbag'irlaridan ekinzorlar, bog' mevazorlar va yaylovlar sifatida keng foydalanib kelgan. Shuning uchun qulay tog' oralig'i botiqlari, daryo va soy bo'ylari azaldan Boysun, Poshxurd, Darband, Mochay, Vaxshivor, Sina kabi o'z davrining ancha yirik aholi manzilgohlari shakllangan. Tog'lararo oqib tushadigan Sherobod, Xo'jaipok, Sangardak va boshqa daryolar, Boysun, Vaxshivor, Sina soylarining vodiylarida joylashgan aholi nisbatan zich yashaydigan hududiy tizimlar hozir ham mintaqada ijtimoiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi.

Alohida qayd qilmoq lozimki, Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti XX asr boshlarigacha tashqi bozor uchun tovar mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan emas edi. Unda aholi, eng avvalo, o'lkaning respublika markaziy rayonlaridan chekkada joylashganligi sababidan, ichki bozor uchungina turli kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqargan: g'alla, meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlari, turli ish qurollari, uy - ro'zg'or buyumlari, ayrim mahalliy gazlama turlari va boshqalar. Bunday holatlar mintaqada Surxondaryo ijtimoiy - iqtisodiy

hayotining yaqin o'tmishi ko'rinishlaridir va u bu jihatdan ham O'zbekiston rayonlari orasida yagona bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning alohida mintaqasi sifatida Surxondaryo viloyati o'zining bir qator iqtisodiy geografik ko'rsatkichlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Jumladan, u 2023 - yil ma'lumotlariga asosan respublikada egallagan maydoniga ko'ra 6 o'rinda tursa, aholisining soni bo'yicha 8, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi bo'yicha 7, yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10 o'rinlarni egallaydi. Ishlab chiqarish unumdorligi, infratuzilma, tadbirkorlik va investitsiya, moliya, ijtimoiy rivojlanish, tashqi iqtisodiy faoliyat kabi muhim iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo, Namangan, Jizzax viloyatlari bilan birgalikda respublikaning qoloq mintaqalari qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Allanov Q.A., Mustayev Q.R. O'rta Osiyo tog' muzliklari va uni o'rganishning amaliy ahamiyati//O'zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Termiz, 2020. – 36-39 b.

2. Maxmatraimov Ch.E., Allanov Q.A., Choriyev A.Q. Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ta'sir etuvchi ayrim muammolar va uni bartaraf etish masalalari//Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va innovatsiya. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – 137-139 b.

3. Alibekov L.A "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" Samarqand 2006

4. Alibekov L.A "Эколого-географические проблем Центральный Азии" Samarqand, 2010.

5. Hasanov I.A, G'ulomov P.N "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" Toshkent , 2003.

Hasanov I.A , G'ulomov P.N "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" Toshkent, 2002

6. Hikmatov F.X, Aytboyev D.P “Gidrologiya asoslari” Toshkent,2003